

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.17/04.06.2021.T.06.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
NAVOIY BO‘LIMI**

**MIRZAYEV BAHOVUDDIN ABDURAZZAQOVICH**

**VAUSH KONI DOLOMITLARINI BOYITISH VA QAYTA ISHLASH  
ASOSIDA MAGNIY OKSIDI OLIH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB  
CHIQISH**

**04.00.14 – Foydali qazilmalarni boyitish**

**TEXNIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Navoiy – 2025**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) of technical  
sciences**

**Mirzayev Bahovuddin Abdurazzaqovich**

Vaush koni dolomitlarini boyitish va qayta ishlash asosida magniy oksidi olish  
texnologiyasini ishlab chiqish.....3

**Мирзаев Баховуддин Абдураззакович**

Разработка технологии получения оксида магния на основе обогащения и  
переработки доломита месторождения Вауш .....21

**Mirzaev Bakhovuddin Abdurazzoqovich**

Development of a technology for obtaining magnesium oxide based on enrichment  
and processing of dolomite from the Vaush mine.....41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....44

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.17/04.06.2021.T.06.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
NAVOIY BO‘LIMI**

**MIRZAYEV BAHOVUDDIN ABDURAZZAQOVICH**

**VAUSH KONI DOLOMITLARINI BOYITISH VA QAYTA ISHLASH  
ASOSIDA MAGNIY OKSIDI OLIH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB  
CHIQISH**

**04.00.14 – Foydali qazilmalarni boyitish**

**TEXNIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Navoiy – 2025

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.4.PhD/T4158 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.nsumt.uz](http://www.nsumt.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xujakulov Nurmurod Botirovich**  
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Muxiddinov Baxodir Faxriddinovich**  
Kimyo fanlari doktori, professor

**Badalov Feruz Amirovich**  
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi DSc.17.04.06.2021.T.06.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 25-dekabr soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba shoh ko‘chasi, 76v-uy. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti majlislar zali. Tel.: (79) 223-23-32; faks: (79) 223-49-66; e-mail: [info@nsumt.uz](mailto:info@nsumt.uz). [www.nsumt.uz](http://www.nsumt.uz)).

Dissertatsiya bilan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (245-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba shoh ko‘chasi, 76v-uy, Tel.: (79) 223-23-32; faks: (79) 223-49-66.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «12» dekabr kuni tarqatildi.  
(2025yil «12» dekabrda 29-raqamli reestr bayonnomasi)



  
**K.S. Sanakulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

  
**O.U. Fuzaylov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d. (PhD)

  
**A.U. Samadov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda bugungi kunda magniy oksidi ishlab chiqarish sanoat korxonalarining ajralmas qismi bo'lib, olovbardosh materiallar olishda hamda turli xildagi magniyli mineral o'g'itlar ishlab chiqarishda muhim xomashyo sifatida foydalaniladi. Sanoat korxonalarining yuqori suratlarda bilan rivojlanishi natijasida magniy oksidi MgO ga bo'lgan ehtiyoj tobora ortmoqda. Shu sababli sanoat korxonalarining ehtiyoji uchun energotejamkor va samarali usullarini ishlab chiqish va bunda mahalliy xomashyolardan tayyorlangan arzon narxdagi magniy oksidi olish texnologiyalarni ishlab chiqishga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda respublikamizning kimyo sanoati va metallurgiya sohalari magniyli birikmalarga muhtojligi va magnezit konlarining mavjud emasligi magnezit, bishofitlarni import qilishni talab qilmoqda. Shu sabab mahalliy xomashyolaridan olingan import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan magniyli mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha maqsadli va izchil ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada mahalliy magniy tarkibli tabiiy minerallar, shu jumladan dolomitlarni kompleks qayta ishlab ulardan magniy oksidi, magnezit kabi tovar shaklidagi sanoat uchun zarur bo'lgan magniy birikmalarini ajratib olish va respublikamizning iqtisodiyotiga import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda keng miqyosda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida yangi konlarni o'zlashtirish va qayta ishlash sohasida muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining uchinchi yo'nalishida "...sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish..."<sup>1</sup> kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, Vaush koni dolomitidan magniy oksidi olish texnologiyasini ishlab chiqish va ilmiy asoslash, shuningdek, ushbu yo'nalishga qaratilgan tadqiqotlar yurtimizdagi bir qancha sanoat tarmoqlari uchun katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmonida "Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, ishlab chiqarishga energiya va resurs tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish" bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shu munosabat bilan, mahalliy xomashyolarni qayta ishlab, boyitib tayyor mahsulot olishni takomillashtirish va rivojlantirish muammolarini hal qilish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 7-ilova 30-bandida

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi» to'g'risidagi Farmoni

“Vaush koni dolomitini kompleks qayta ishlash yo‘li bilan magniy oksidi (magnezit) olish” topshirig‘ini hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307 son “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 6-ilova 91-bandida “Dolomitni kompleks qayta ishlash yo‘li bilan laboratoriya sharoitida magnezit olish usulini ishlab chiqish”. 6a-ilova 9-bandida “Vaush konidagi mavjud noma’dan foydali qazilmalar: dolomit, kvars qumi va bentonit gillarini kompleks o‘rganish orqali ikkilamchi tayyor mahsulot ishlab chiqarish” bo‘yicha berilgan topshiriqlarni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma‘lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi.** Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VII. “Yer to‘g‘risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishlash)” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon amaliyotida foydali qazilmalarni boyitishga va qayta ishlashga, ular asosida magniyli mahsulotlar olish bo‘yicha ilmiy izlanishlarga: Nosov A.V., Wanzhong Yin, Gonglun Chen, Iwasaki I., Kropanev S.I., Nekrasova G.N., Dormeshkin O.B., Ketov A.A., Kuzmenkov D.M., Dmitrevskiy B.A. va boshqa olimlar katta hissa qo‘shgan. Umuman mamlakatimiz foydali qazilmalarni boyitish sanoatining shakllanishiga Sanaqulov Q.S., Ergashev U.A., Samadov A.U., Mustakimov O.M., Yusupxodjaev A.A., Yakubov M.M., Xasanov A.S., Sattarov G.S., Doniyarov N.A., Xujakulov N.B., Xo‘jamov U.U., Badalov.F.A. va boshqa olimlar katta hissa qo‘shganlar. Bundan tashqari dolomitlardan magniyli mahsulotlar olish bo‘yicha yurtimiz olimlaridan: Adilov D.K., Mirzayev A.U., Chiniqulov X., Mixliyev O.A., Tojimatova M.Y., Dadaxodjayev A.T, Tursunov A.S., Ergashev D.A., Xamrakulov Z.A., Saydullayeva G. A., Eshpulatova M.B., Ergashev D.A. kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan.

Ushbu dissertatsiya ishi bugungi kunda Respublikamiz hududlaridagi sanoat korxonalarini uchun zarur hisoblangan magnezit, brusit va periklaz mahsulotlari chetdan import qilib olib kelinayotgan  $MgCO_3$ ,  $Mg(OH)_2$  va  $MgO$  larning o‘rnini bosuvchi, arzon mahalliy xomashyolar (dolomit, serpentinit va h.k.) dan magniyli mahsulotlar ishlab chiqish texnologiyasini yaratish va amaliyotga tadbiiq qilishga bag‘ishlangan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta‘lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 7-ilova 30-bandida “Vaush koni dolomitini kompleks qayta ishlash yo‘li bilan magniy oksidi (magnezit) olish” topshirig‘ini hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307 son “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi

qarori 6-ilova 91-bandida “Dolomitni kompleks qayta ishlash yo‘li bilan laboratoriya sharoitida magnezit olish usulini ishlab chiqish”. 6a-ilova 9-bandida “Vaush konidagi mavjud noma’dan foydali qazilmalar: dolomit, kvars qumi va bentonit gillarini kompleks o‘rganish orqali ikkilamchi tayyor mahsulot ishlab chiqarish” mavzusidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Vaush koni dolomitlarini boyitish va qayta ishlash asosida magniy oksidi olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotlar vazifalari:**

Vaush koni dolomit namunalarining kimyoviy va mineralogik tarkibini turli tahlillar asosida o‘rganish;

Vaush koni dolomitini flotatsiya usulida boyitishning reagent rejimi va texnologik parametrlarini tadqiq qilish;

termik ishlov berish asosida kaustik dolomit olishga ta’sir qiluvchi parametrlarni aniqlash;

kaustik dolomitni tanlab eritishda ammoniy karbonatning optimal nisbatini aniqlash;

tanlab eritishdan olingan eritmani qizdirish haroratining optimal parametrlarini aniqlash;

magniy oksidi olishda termik ishlov berish haroratini optimal parametrlarini aniqlash;

tadqiqotlar asosida Vaush koni dolomitlarini boyitish va qayta ishlash asosida magniy oksidi olish texnologiyasini ishlab chiqish;

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi Vaush koni dolomiti olingan.

**Tadqiqotning predmetini** Vaush koni dolomit tarkibini hamda boyitishning optimal sharoitlarini aniqlash asosida dolomitdan magniy oksidi olish texnologiyasini ishlab chiqishni tashkil etgan.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarishda Vaush koni dolomiti tarkibini elementar analiziga asoslangan mass-spektrometrik tahlil usuli, kimyoviy, mineralogik tahlillar, IQ-spektroskopiya usuli, termogravimetrik tahlil, rentgen tahlili va element tahlil usullari qo‘llanilgan, laboratoriya tajribalari va tajriba sinov ishlaridan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Vaush koni dolomitini flotatsiya usulida boyitishda ilk marotaba alkilbenzolsulfokislota (ABSK) reagentidan foydalanilgan, natijada dolomitning boyitmaga ajralishi 96,03% ga, boyitmadagi dolomit miqdori 93,8% ga oshishi aniqlangan;

boyitilgan dolomitni termik ishlov berishda dekarbonizatsiya jarayonini faollashtirish maqsadida NaClning optimal miqdori aniqlangan;

boyitilgan dolomitni dekarbonizatsiyalash natijasida kaustik dolomit olishning optimal harorati aniqlangan;

ilk bor Vaush koni dolomitini boyitish va qayta ishlash orqali turli sanoat tarmoqlari uchun magniy oksidi va magniyli mahsulotlar hamda kalsiy karbonati olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Vaush koni dolomitlarini flotatsiya usulida boyitishda maqbul flotoreagent sifatida alkilbenzolsulfokislota tanlangan hamda ABSK reagentining maqbul sarfi asosiy flotatsiya uchun 210,6 g/t ni va nazorat flotatsiya uchun 166,2 g/t ni tashkil etishi asoslangan;

olib borilgan tadqiqot natijasida dolomit boyitmasini termik ishlov berishda dekarbonizatsiyani faollashtirish maqsadida NaCl ning eng maqbul miqdori 0,5% ni tashkil etishi aniqlangan;

NaCl eritmasi yordamida tayyorlangan dolomitli shixtani dekarbonizatsiyalash jarayonida 650°C haroratda 1 soat davomida termik ishlov berish orqali kaustik dolomit olishning eng maqbul sharoiti aniqlangan;

tanlab eritish jarayonida kaustik dolomitga ammoniy karbonat eritmasini ta'sir ettirish orqali  $Mg_2(OH)_2CO_3$  olishning maqbul ko'rsatgichlari aniqlangan;

tanlab eritish natijasida olingan  $Mg_2(OH)_2CO_3$  ga termik ishlov berish orqali MgO olishning maqbul harorati 850°C va davomiyligi 1 soatni tashkil etishi asoslangan

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, laboratoriya va yarim sanoat sinovlarining salmoqli hajmi, dolomitni boyitish orqali boyitilgan dolomit olish bo'yicha ishlarning asosiy maqsadga mos kelishi va miqdoriy tasdiqlanishi, dolomitni alohida termik qayta ishlash usullari natijalari, Vaush koni dolomitini boyitish va qayta ishlash orqali magniy oksidi olishda sezilarli ijobiy natijalarga erishilgan, shuningdek, ijobiy laboratoriya va yarim sanoat sinov ma'lumotnomalari bilan tasdiqlangan.

### **Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Vaush koni dolomitini boyitish orqali boyitilgan toza dolomit olish va alohida qayta ishlashni maqsadga muvofiqligini nazariy asoslash, dolomitga termik ishlov berish va tadqiqotlar yordamida termik ishlov berish jarayonining optimal haroratini o'rnatish bilan izohlanadi;

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati Vaush koni dolomitlarini boyitish va qayta ishlash asosida magniy oksidi olish texnologik sxemasini ishlab chiqish, shu jumladan bir qancha sanoat tarmoqlari uchun magniy oksidi va magniyli birikmalar olishga yordam beradi. Xususan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindisiz yoki kam chiqindili ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, shuningdek, ekologik toza va iqtisodiy jihatdan samarali magniy oksidi olishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Vaush koni dolomitlarini boyitish va qayta ishlash asosida magniy oksidi olish texnologiyasini ishlab chiqishda olingan ilmiy natijalar asosida:

Vaush koni dolomitlarini flotatsiyali boyitish usuli "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati Markaziy ilmiy tadqiqot laboratoriyasida joriy qilingan ("Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 29-oktabrdagi 02-07/02/11137-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, dastlabki mahsulot tarkibidagi dolomitning boyitmaga ajralishini 96,03% ga va dolomitning boyitmadagi miqdorini 93,8% ga oshirish imkonini bergan;

dolomit boyitmasini NaCl qo‘shib dekarbonizatsiyalanish jarayoni “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati Markaziy ilmiy tadqiqot laboratoriyasida joriy etilgan (“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 29-oktabrdagi 02-07/02/11137-sonli ma’lumotnomasi). Natijada dekarbonizatsiyalash jarayonidan keyingi tanlab eritishda 92.7% li magniy oksidi olish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 5 ta mahalliy ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida olib borilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi bo‘yicha tavsiyalar, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Magniy tarkibli noruda foydali qazilmalarini boyitishning zamonaviy usullari va qayta ishlashning texnologiyalari**” deb nomlangan birinchi bobida magniy tarkibli foydali qazilmalarning turlari, tarkibi va asosan dolomitlarning boyitish va qayta ishlashning zamonaviy usullari tahlil qilingan. Jahon tajribasini o‘rganish natijasida magniy asosan magnezit va brusit minerallaridan olinishi hamda bu minerallarning O‘zbekiston hududida juda kam miqdorda uchrashi kuzatilgan. Buning natijasida olinadigan mahsulotning tannarxi oshib ketishi o‘rganilgan. Tadqiqot ishida magniy oksidi tannarxini pasaytirish va O‘zbekiston hududida katta zaxiraga ega bo‘lgan dolomitlardan oqilona foydalanish uchun xomashyo sifatida dolomit olingan. Hozirda mamlakatimizda magniy oksidi ishlab chiqarish jarayoni xomashyo bazasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ishlab chiqarish hajmining kichikligi, joriy etilayotgan texnologiyalar samaradorligining past darajasi kabi ko‘pgina kamchiliklar mavjud. Shuningdek, dolomitni boyitish va qayta ishlash natijasida magniy oksidi va magniyli mahsulotlar olishning zamonaviy va samarali texnologiyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Dissertatsiyaning “**Vaush koni dolomitlarini boyitish va qayta ishlash usullarini tadqiq qilish metodikasi va obyekt**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyekt sifatida tanlangan Vaush koni dolomitining kimyoviy va mineralogik tarkiblari, termografik va infraqizil spektroskopik tahlil natijalari

o‘rganilgan hamda tadqiqot o‘tkazish usullari keltirilgan va laboratoriya tajribalari olib borilganligi ta’riflangan.

Tadqiqot obyekti sifatida olingan Vaush koni dolomitlari har xil gorizontidan olingan namunalar “chorak bo‘laklarga ajratish bilan namunani qisqartirish” (kvartovaniye) usuli yordamida saralab olingan. Qisqartib olingan namunalarning mineralogik va kimyoviy tahlili amalga oshirilgan. Olingan namunalarni rentgen-difraktometrik tahlillari yordamida mineralogik tarkibi aniqlangan bo‘lib, tahlil natijalariga ko‘ra dolomit ma’dan tarkibida dolomit 64,2%, kvars 26,3%, gips – 1,8%, paligorskit – 1,3%, albit-1,0%, dala shpati-3,9% va galit – 1,5% ni tashkil etgan va Vaush dolomitlari asosan dolomit mineralidan va qo‘shimcha sifatida kvars minerallaridan iborat ekanligi aniqlangan. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Vaush koni Dolomit namunalarining rentgen difraktometrik tahlil natijalari,%

№	Nomlanishi	Minerologik tarkibi, %																
		Gilsimon					Karbonatlar			Boshqalar					Jami			
		Slyuda	SGM	Kaolinit	Xlorit	Paligorskit	Kalsit	Dolomit	Siderit	Kvars	KDSh	Albit	Pirit	Gips	Galit	Gilsimon	Karbonatlar	Boshqalar
1	Dolomit	0	0	0	0	1,3	0	64,2	0	26,3	3,9	1,0	0	1,8	1,5	1,3	64,2	34,5

**Izoh:**

GSM - gidroslyuda-montmorillionitning aralash qatlamli shakllanishi;

KDSh – kaliyli dala shpati;

Qisqartib olingan namunalarning alohida kimyoviy tahlili ham olib borilgan. Kimyoviy tahlil natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Vaush koni dolomitining alohida gorizontlar bo‘yicha kimyoviy tahlil natijalari %


Komponentlar miqdori, %							KYM	yig‘indi
CaO	MgO	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	SiO <sub>2</sub>	Na <sub>2</sub> O	K <sub>2</sub> O	SO <sub>3</sub>		
20,27	14,36	1,3	28,8	0,76	0,38	1,04	32,99	99,99

Kimyoviy tahlil ma’lumotlaridan dolomit ma’dani namunalari tarkibida CaO-20,27%, MgO-14,36%; Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>-1,3%; SiO<sub>2</sub>-28,8%; Na<sub>2</sub>O-0,76%; K<sub>2</sub>O-0,38; SO<sub>3</sub>-1,04; KYM-32,99% dan tashkil topganligini ko‘rish mumkin. Tahlil natijalaridan ko‘rinadiki, dolomit tarkibida SiO<sub>2</sub>-28,8% mavjudligi va shu sababdan Vaush koni dolomitini boyitish zarurati aniqlangan.

Dissertatsiyaning “**Vaush koni dolomitlarini boyitish va qayta ishlashning texnologik parametrlarini tadqiq qilish va aniqlash**” deb nomlangan uchinchi bobida dolomitni boyitish jarayoni, reagent sarfi, dolomitli shixtani termik ishlov berish jarayonida optimal sharoitlarni aniqlagan holda dekarbonizatsiya jarayoni, tanlab ertish jarayonining maqbul sharoitlari va ko‘rsatkichlari hamda olingan


mahsulotlarning rentgen, elementar tarkibi va optik-emission tahlil natijalari taqdim etilgan.

Dunyo amaliyotida dolomitni boyitish asosan flotatsiya usulida amalga oshirilmoqda. Quyidagi keltirilgan 1–rasmdagi sxema bo‘yicha dastlabki tajriba tadqiqotlari o‘tkazilgan. Bunda tadqiqotlar uch xil: soapstok, ishlatilgan motor moyi va ABSK flotoreagentlari bilan amalga oshirilgan. Flotatsiya usulida boyitish tadqiqotlari dastlab soapstok flotoreagentini qo‘shish orqali amalga oshirilgan.



**1–rasm. Dolomitni flotatsiya usulida boyitishning texnologik sxemasi**

Bunda FML 3 (295 FL) flotatsiya mashinasiga suv solinib, 330 g dolomit rudasi boyitilgan. Tadqiqotlarda asosiy flotatsiyaga 0,21 g, nazorat flotatsiya jarayoniga 0,114 g soapstok flotoreagent sifatida qo‘llanilgan. Soapstok bilan flotatsiya amalga oshirilganda asosiy flotatsiya jarayonidan olingan boyitma tarkibidagi dolomitning miqdori 85,8% ni, nazorat flotatsiya chiqindisi tarkibidagi dolomitning miqdori esa 26,92% tashkil etgan.




**2-rasm. Turli flotoreagentlar qo‘llanilganda asosiy flotatsiya jarayonida dolomitning boyitmaga ajralishi, chiqishi va miqdori**

Navbatdagi tadqiqotda flotoreagent sifatida ishlatilgan motor moyidan foydalanilgan. Tadqiqotlarda asosiy flotatsiyaga 0,95 g, nazorat flotatsiya jarayoniga 0,515 g ishlatilgan motor moyi flotoreagenti qo‘llanilgan. Ishlatilgan motor moyi bilan flotatsiya amalga oshirilganda asosiy flotatsiya jarayonidan olingan boyitma

tarkibidagi dolomitning miqdori 87,3% ni, chiqindi tarkibidagi dolomitning miqdori esa 36,27 % tashkil etgan.


Keyingi tadqiqotlarda flotoreagent sifatida ABSK dan foydalanilgan. Tadqiqotlarda asosiy flotatsiyaga 0,0702 g, nazorat flotatsiya jarayoniga 0,0554 g ABSK flotoreagenti qo‘llanilgan. Olingan natijalar 2 va 3-rasmlarda keltirilgan.



### 3-rasm. Turli flotoreagentlar qo‘llanilganda asosiy flotatsiya jarayonida dolomitning chiqindiga ajralishi, chiqishi va miqdori

Yuqoridagi 2 va 3–rasmdan ko‘rinib turibdiki, ABSK flotoreagenti bilan flotatsiya jarayoni amalga oshirilganda asosiy flotatsiya jarayonida olingan boyitma tarkibidagi dolomitning miqdori 93,8% ni, chiqindi tarkibidagi dolomitning miqdori esa 20,67% tashkil etgan. Asosiy flotatsiya jarayonida turli flotoreagentlardan foydalanilganda eng yaxshi natijaga ABSK flotoreagenti orqali erishilgan.


Nazorat flotatsiyasida ham soapstok, ishlatilgan motor moyi va ABSK flotoreagentlaridan foydalangan holda dolomitning boyitmaga chiqishi, ajralishi va miqdori aniqlangan. Natijalar quyidagi 4–rasmda keltirilgan.



### 4-rasm. Turli flotoreagentlar qo‘llanilganda nazorat flotatsiya jarayonida dolomitning boyitmaga ajralishi, chiqishi va miqdori

Yuqoridagi 4–rasmda keltirilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, nazorat flotatsiyasida ABSK flotoreagentidan foydalanilganda dolomitning boyitma tarkibidagi miqdori 84,66% ni tashkil etgan. Shu bilan birga nazorat flotatsiyasida

dolomitning chiqindiga chiqishi, ajralishi va miqdori aniqlangan va natijalar 5-rasmda keltirilgan.



### 5-rasm. Turli flotoreagentlar qo'llanilganda nazorat flotatsiya jarayonida dolomitning chiqindiga chiqishi, ajralishi va miqdori.

4 va 5-rasmda keltirilgan natijalar bo'yicha nazorat flotatsiyasida eng yaxshi ko'rsatkichga ABSK flotoreagentidan foylanilganda erishilgan. Bunda chiqindi tarkibidagi dolomitning miqdori 7,44% tashkil etgan.

Quyidagi 4-jadvalda ABSK flotoreagentidan foydalanib o'tkazilgan flotatsiya natijalari keltirilgan.


4-jadval

ABSK flotoreagenti orqali amalga oshirilgan flotatsiya tadqiqoti natijalari

Boyitishning texnologik ko'rsatkichlari	Asosiy flotatsiya			Nazorat flotatsiya	
	Mahsulotlarning nomi				
	dastlabki xomashyo	boyitma	chiqindi	boyitma	chiqindi
<b>Mahsulot og'irligi Q, g</b>	330	216,91	136,49	23,39	113,09
<b>Mahsulot chiqishi <math>\gamma</math>, %</b>	100	65,73	41,36	7,09	34,27
<b>Ajralishi <math>\epsilon</math>, %</b>	100	96,03	13,32	9,35	3,97
<b>dolomitning miqdori <math>\beta</math>, %</b>	64,2	<b>93,8</b>	20,67	84,66	<b>7,44</b>
<b>Tajriba sharoitlari</b>	t=9 min Q:S=1:6 yiriklik sinfi -0,125 mm			t=4 min Q:S=1:5 yiriklik sinfi -0,125 mm	

Yuqorida keltirilgan jadval va diagrammalardan shuni xulosa qilish mumkinki, soapstok, ishlatilgan motor moyi hamda ABSK qo'llanilib flotatsiya jarayoni amalga oshirilganda, olingan natijalar asosida, ABSK flotoreagenti asosiy flotoreagent sifatida tanlangan hamda keyingi tadqiqotlar aynan ushbu reagentni qo'llab, boyitishning maqbul parametrlari aniqlangan. Bunda dastlab reagent sarfi va Q:S nisbat ko'rsatkichga bog'liqligi o'rganilib, tajriba usulida maqbul ko'rsatkichlarni aniqlash amalga oshirilgan.


Asosiy flotatsiya jarayonini turli Q:S nisbatlarda amalga oshirilganda dolomitning ajralishi quyidagi 6-rasmda keltirilgan.



**6-rasm. Asosiy flotatsiya jarayonida ABSK flotoreagenti qo‘llanilganda dolomitning boyitma va chiqindiga ajralishining Q:S nisbatga bog‘liqligi**

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar natijasida ko‘rishimiz mumkinki, asosiy flotatsiya jarayonida Q:S nisbat 1:6 bo‘lganda dolomitning boyitmaga ajralishi eng yuqori ko‘rsatkichni tashkil etgan va maqbul Q:S nisbat 1:6 nisbati tanlangan.


Nazorat flotatsiya jarayonida maqbul texnologik ko‘rsatkichlarni aniqlash maqsadida turli Q:S nisbatlarda tadqiqotlar olib borilgan va boyitmaga dolomitning ajralishi natijalari quyidagi 7-rasmda keltirilgan.



**7-rasm. Nazorat flotatsiya jarayonida ABSK flotoreagenti qo‘llanilganda dolomitning boyitma va chiqindiga ajralishining Q:S nisbatga bog‘liqligi**

Yuqoridagi keltirilgan 7-rasmdan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, nazorat flotatsiyasida maqbul Q:S nisbati esa 1:5 nisbatni tashkil etgan.

Asosiy va nazorat flotatsiyalarida dolomitning ajralishini reagent sarfiga bog‘liqligi quyidagi 8-rasmda keltirilgan.



**8-rasm. Asosiy va nazorat flotatsiya jarayonlarida ABSK flotoreagenti qo‘llanilganda dolomitni boyitmaga ajralishining reagent sarfiga bog‘liqligi**

Yuqoridagi keltirilgan 8–rasmdan shuni xulosa qilish mumkinki, ABSK flotoreagentidan foydalanilganda dolomitning ajralishi bo‘yicha asosiy flotatsiya jarayoni uchun 210,6 g/t, nazorat flotatsiyasi uchun 166,2 g/t sarflanishi aniqlangan.

Keyingi jarayonda dolomit namunasini kaustik dolomitga o‘tishini pastroq haroratda amalga oshirish maqsadida dolomitga 0,3%, 0,5%, 0,75% va 1% *NaCl* tuzining eritmasini ta’sir ettirish orqali kaustik dolomit olishda tadqiqot ishlari olib borilgan. Bunda termik parchalashda maqbul eritma sifatida *NaCl* tuzi 0,5% eritmasi tanlangan. Olingan natijalari 5–jadvalda keltirilgan.

5-jadval.

Dolomitli shixta va qo‘shimchalarsiz dolomitni termik parchalashda massa yo‘qotilishining haroratga bog‘liqligi, %

Xom ashyo nomi	Harorat, °C												
	400	500	525	550	575	600	625	650	675	700	725	750	800
	massa yo‘qotilishi, %												
Dolomit	2,85	3,15	3,45	4,25	5,0	5,45	6,35	8,25	11,6	16,4	18,9	<b>20,9</b>	25,5
Dolomit 0,3% <i>NaCl</i>	2,85	5,4	8,2	10,9	13,1	15,6	17,9	19,3	20,6	21,3	23,4	24,6	27,3
Dolomit 0,5% <i>NaCl</i>	3,1	8,9	12,75	14,15	15,65	16,7	18,96	<b>20,35</b>	21,35	21,6	24,3	24,8	30,0
Dolomit 0,75% <i>NaCl</i>	3,4	9,7	12,82	14,33	15,96	16,91	19,14	20,8	21,52	21,8	24,5	24,9	30,3
Dolomit 1,0% <i>NaCl</i>	4	11	13,6	14,85	16,3	17,2	19,5	20,8	21,7	22,1	24,8	25,2	30,6

Shuningdek kaustik dolomitning parchalanishi eng maqbul harorati 650° C ekanligi aniqlangan.


Termik ishlov berish jarayonining texnologik sxemasi quyidagi 9–rasmda keltirilgan.



**9-rasm. Vaush koni dolomitini termik ishlov berish yo‘li bilan kaustik dolomit olishning texnologik sxemasi**


Tadqiqot ishida olingan kaustik dolomitini tanlab eritish jarayonida asosiy reagent sifatida  $(NH_4)_2CO_3$  ammoniy karbonat tuzining 3-7% li eritmasidan

foydalanilgan. Tanlab eritish jarayonida magniy oksidining eritma tarkibiga o'tishining ammoniy karbonati miqdoriga bog'liqligi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalari quyidagi 10–rasmda keltirilgan.



**10-rasm. Tanlab eritish jarayonida magniy oksidining eritma tarkibiga o'tishida eritma tarkibidagi ammoniy karbonatining miqdoriga bog'liqligi**


Olingan natijalar asosida tanlab eritish jarayonida magniy oksidining eritma tarkibiga o'tishida ammoniy karbonatining 5%li maqbul ko'rsatkich sifatida tanlangan va tanlab eritish jarayoni turli Q:S nisbatlarda amalga oshirilgan. Olingan natijalar quyidagi 11–rasmda keltirilgan.



**11-rasm. Tanlab eritish jarayonida ammoniy karbonatini qo'llaganda magniy oksidining eritma tarkibiga o'tishining turli Q:S nisbatiga bog'liqligi**


Yuqorida keltirilgan rasmdan shuni xulosa qilish mumkinki, tanlab eritish jarayonida Q:S nisbatlarida eng yaxshi natijani 1:10 nisbati ko'rsatgan hamda maqbul nisbat sifatida 1:10 tanlangan.

Tanlab eritish jarayonining texnologik sxemasi quyidagi 12–rasmda keltirilgan.



**12-rasm. Kaustik dolomitni tanlab eritish orqali magniy gidroksokarbonatini olishning texnologik sxemasi**


Tanlab eritish jarayonidan olingan magniy gidroksokarbonati elektron mikroskopik tahlil qilindi va tahlil natijalari quyidagi 13–rasmda keltirilgan.



**13-rasm. Tanlab eritish jarayonidan olingan magniy gidroksokarbonatining kimyoviy va elementar tarkibi**

Shuni ta’kidlash kerakki, o’rganilayotgan  $Mg_2(OH)_2CO_3$  namunalarning ba’zi nuqtalarida Ca ning eng past miqdori qayd etilgan: Ca - 0,8%; S - 2,1%; Na – 3,7%; Cl – 4,7%; O - 54,1%; C - 14,7%.

Tadqiqot natijalariga ko’ra, tanlab eritish jarayonidan olingan magniy gidroksokarbonati va kalsiy karbonatining rentgen tasvirlari Shimadzu EDX-7000/8000 modelidagi yuqori aniqlikdagi rentgen nurli lyuminetsent energiyani tarqatuvchi apparat yordamida olingan. Tahlil natijalari quyidagi 14–rasmda keltirilgan.




**14-rasm. Tadqiqot ishidan olingan magniy gidroksokarbonati va kalsiy karbonatining rentgen tasvirlari: a) Magniy gidroksokarbonatining rentgen tahlili. b) Kalsiy karbonatining rentgen tahlili**

Rentgen tahlil natijalaridan ko‘rishimiz mumkinki, tanlab eritish jarayonidan olingan magniy gidroksokarbonatining tahlil natijasiga ko‘ra ( $Mg_2(OH)_2CO_3$ ) 81% va  $CaS$  19% ni tashkil etgan. Bundan tashqari tanlab eritish jarayonida qoldiq mahsulot sifatida olingan kalsiy karbonatining tarkibida  $CaCO_3$  98% va  $Mg(OH)_2$  2% ni tashkil etgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, tanlab eritish jarayonida qoldiq mahsulot sifatida 98% toza  $CaCO_3$  olish mumkinligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning “**Vaush koni dolomitlarini boyitish va qayta ishlash asosida magniy oksidi olish texnologiyasini ishlab chiqish va sanoatda foydalanishning iqtisodiy samaradorligi**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida Vaush koni dolomitlarini boyitish va qayta ishlash asosida magniy oksidi olishning texnologik sxemasi va apparatlar zanjir sxemasi ishlab chiqilgan.

Taklif etilayotgan texnologik sxema bo‘yicha tadqiqot sinov ishlari quyidagicha amalga oshirilgan. Dastlab kondan olingan namunalarni -0,125 mm yiriklikkacha yanchish jarayoni amalga oshirilgan. Yanchish jarayonidan chiqqan mahsulot flotatsiya jarayoniga yuborilgan va flotatsiya jarayonida asosiy flotatsiya Q:S 1:6 nisbatda nazorat flotatsiya Q:S 1:5 nisbatda olib borilgan. Asosiy va nazorat flotatsiya jarayonida ham ABSK flotoreagentidan foydalanilgan. Flotatsiya jarayonida boyitma sifatida dolomitli mahsulot hamda chiqindi sifatida kvarts qumi aralashmasi olingan. Keyingi jarayonda boyitmaga 0,5% NaCl eritmasi qo‘shish orqali shixta tayyorlanib, termik ishlov berish jarayoniga yuborilgan. 650° C da termik ishlov berish natijasida kaustik dolomit olingan va tanlab eritish jarayoniga yuborilgan. Tanlab eritish jarayonida kaustik dolomit tarkibidagi magniy oksidini 5%li ammoniy karbonati eritmasi yordamida pH=10 ishqoriy muhitda eritmaga o‘tkazilgan va hosil bo‘lgan  $Mg_2(OH)_2CO_3 + (NH_4)_2CO_3 + CaCO_3$  mahsulot filtrlangan. Kek mahsuloti  $CaCO_3$  va filtrate esa  $Mg_2(OH)_2CO_3 + (NH_4)_2CO_3$  tarkibli ekanligi aniqlangan. Olingan filtratni qizdirish yo‘li bilan tarkibidagi  $Mg(OH)_2 * MgCO_3 * H_2O \downarrow + 2NH_3 \uparrow + CO_2 \uparrow$  ammiak va karbonat angidrid gazlarining uchishi evaziga  $Mg_2(OH)_2CO_3$  tarkibli mahsulot hosil bo‘lgan. Ushbu  $Mg_2(OH)_2CO_3$  mahsulotga termik ishlov berish yo‘li bilan MgO olingan.

Yuqoridagi ma’lumotlar asosida taklif etilayotgan texnologik sxema quyidagi 15–rasmda keltirilgan.



**15-rasm. Vaush koni dolomitlarini boyitish va qayta ishlash asosida magniy oksidi olishning taklif etilayotgan texnologik sxemasi**

O'tkazilgan tajriba-laboratoriyali va yarim sanoatli sinovlar natijasiga asoslangan holda tavsiya etilayotgan texnologiyaning kutilayotgan iqtisodiy samaradorligi yiliga 1,53 mln \$ ni tashkil qiladi.

## XULOSA

Dissertatsiya ishi bo'yicha olib borilgan nazariy va tajribaviy tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar qilindi:

1. Vaush koni dolomitining kimyoviy va mineralogik tarkibini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijalari asosida namuna tarkibida CaO-15,54-29,84%, MgO-11,2-20,81%; Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>-0,13-0,35%; SiO<sub>2</sub>-0,58-37,94%; Na<sub>2</sub>O-0,83-1,13%; K<sub>2</sub>O-0,02-0,03%; SO<sub>3</sub>-0,8-1,49%; KYM-33,01-46,3% miqdorlarda mavjudligi, shu bilan birga dolomit – 51,2-94,9%; kvars – 0,3-36,5%; gips – 0-3,2%; paligorskit – 0-2,2%; albit – 0-1,6%; kaliyli dala shpati -0-7,4% va galit – 0-2,7% minerallaridan tashkil topganligi aniqlangan.

2. Vaush koni dolomitini flotatsiya usulida boyitishda ilk marotaba alkilbenzolsulfokislota (ABSK) reagentidan foydalanilgan, natijada asosiy va nazorat flotatsiya jarayonining davomiyligi, Q:S nisbati hamda reagent sarflarining optimal ko'rsatkichlari aniqlangan.

3. Termik parchalash jarayonida dolomitga NaCl eritmasining ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida NaCl eritmasi dolomitni dekarbonizatsiyalanishini tezlashtirgan va 650°C haroratda kaustik dolomit olingan. Termik parchalash jarayonida NaCl eritmasining optimal miqdori 0,5%, termik parchalash davomiyligi 60 daqiqani tashkil etgan.

4. Kaustik dolomitni tanlab eritish jarayonida magniy oksidini eritmaga o'tishi ammoniy karbonat eritmasining 5%li miqdorida yaxshi natijaga erishilgan, bunda eritma harorati 14-15°C va magniy oksidini eritmaga o'tish davomiyligi 20 daqiqani tashkil etgan.

5. Tanlab eritishdan olingan eritmani 70°C haroratda qizdirish natijasida, eritma tarkibidagi magniy oq rangli tuz ko'rinishida hosil bo'lgan. Natijada eritmada hosil bo'lgan mahsulotni filtrlash orqali eritmada magniy gidroksokarbonat ajratib olingan.

6. Olingan magniy gidroksokarbonatni termik ishlov berish orqali magniy oksidi olish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, 850°C haroratda magniy gidroksokarbonati tarkibidagi CO<sub>2</sub> va boshqa uchuvchan moddalar yo'qotishga erishilgan, hamda termik ishlov berish jarayonining davomiyligi 60 daqiqani tashkil etgan.

7. Vaush koni dolomitlarini boyitish va qayta ishlash asosida magniy oksidi olish uchun dastlabki namuna flotatsiya usulida boyitilib, boyitmani termik qayta ishlash, tanlab eritish va olingan magniy gidroksokarbonatini termik ishlov berish orqali tarkibi 92,7%li - MgO olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

8. Tadqiqot natijasida olingan magniy oksidi tegishli GOST 14832-79, GOST 1216-87, GOST 5381-93 va GOST 10360-85 talablariga javob berishi aniqlangan.

9. Tavsiya etilayotgan Vaush koni dolomitlarini boyitish va qayta ishlash asosida magniy oksidi olish texnologiyasidan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik yiliga 1,53 mln \$ ni tashkil qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.17/04.06.2021.Т.06.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАВОЙСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ГОРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**НАВОЙСКОЕ ОТДЕЛЕНИЕ АКАДЕМИИ НАУК  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**МИРЗАЕВ БАХОВУДДИН АБДУРАЗЗАКОВИЧ**

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ОКСИДА МАГНИЯ НА  
ОСНОВЕ ОБОГАЩЕНИЯ И ПЕРЕРАБОТКИ ДОЛОМИТОВ  
МЕСТОРОЖДЕНИЯ ВАУШ**

**04.00.14 – Обогащение полезных ископаемых**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Навои-2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2023.4.PhD/T4158.**

Диссертация выполнена в Навоийском отделении Академии наук Республики Узбекистан.  
Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу ([www.nsumt.uz](http://www.nsumt.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:** **Хужакулов Нурмурод Ботирович**  
доктор философии (PhD) по техническим наукам,  
доцент

**Официальные оппоненты:** **Мухиддинов Баходир Фахриддинович**  
Доктор химических наук, профессор

**Бадалов Феруз Амирович**  
доктор философии (PhD) по техническим наукам,  
старший научный сотрудник

**Ведущая организация:** **Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова**

Защита диссертации состоится 25 декабря 2025 года в 14<sup>00</sup> часов на заседании Научного Совета DSc.17/04.06.2021.T.06.01 (Адрес: 210100, г. Навои, пр-т. Галаба, 76в. Зал заседаний Навоийского государственного горно-технологического университета. Тел.: (79) 223-23-32; факс: (79) 223-49-66; e-mail: [info@nsumt.uz](mailto:info@nsumt.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Навоийского государственного горно-технологического университета (зарегистрирован за №245). (Адрес: 210100, г. Навои, пр-т. Галаба, 76в, Тел.: (79) 223-23-32; факс: (79) 223-49-66.)

Автореферат диссертации разослан 12 декабря 2025 года.  
(реестр протокола рассылки №29 от 12 декабря 2025 года.)



**К.С.Санакулов**  
Председатель Научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

**О.У.Фузайлов**  
Ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.ф.т.н. (PhD)

**А.У.Самадов**  
Председатель Научного семинара при Научном  
совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В современном мире производство оксида магния является неотъемлемой частью промышленных предприятий и используется в качестве важного сырья при получении огнеупорных материалов и производстве различных видов магниевых минеральных удобрений. В результате стремительного развития промышленных предприятий потребность в оксиде магния (MgO) постоянно растет. Поэтому актуально сосредоточиться на разработке энергосберегающих и эффективных методик для нужд промышленных предприятий и разработке технологий получения недорогого оксида магния из местного сырья.

В связи с потребностью химической промышленности и металлургии республики в соединениях магния и существует преимущественный спрос импорта магнезита, бишофитов. В этой связи проводятся целенаправленные и последовательные научные исследования по производству импортозамещающей и экспортоориентированной магниевой продукции, полученной из местного сырья. В следствие этого особое внимание уделяется комплексной переработке местных магнийсодержащих природных минералов, в том числе доломитов, извлечению из них соединений магния, необходимых для промышленности в товарной форме, таких как оксид магния, магнезит, и созданию технологий производства импортозамещающей продукции для экономики нашей республики.

В результате широкомасштабных мер, реализуемых в нашей республике, достигаются определенные результаты в области освоения и переработки новых месторождений. В третьем направлении Стратегии действий Республики Узбекистан на 2017-2021 годы определены такие важные задачи, как «...производство готовой продукции с высокой добавленной стоимостью на основе глубокой переработки высокотехнологичных обрабатывающих отраслей промышленности, прежде всего местных сырьевых ресурсов...»<sup>2</sup> Исходя из этих задач, разработка и научное обоснование технологии получения оксида магния из доломита месторождения Вауш, а также исследования, направленные в этом направлении, имеют практическое значение для ряда отраслей промышленности нашей страны.

В Указе Президента Республики Узбекистан №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года определены важные задачи по «стимулированию научно-исследовательской и инновационной деятельности, созданию эффективных механизмов внедрения инновационных достижений в практику, широкому внедрению в производство энерго- и ресурсосберегающих технологий». В соответствии с этим проводятся научные исследования по решению проблем совершенствования и развития производства готовой продукции путем переработки и обогащения

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi» to'g'risidagi Farmoni

местного сырья. Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в пункте 30 Приложения №7 к Постановлению Президента Республики Узбекистан № ПП-4805 «О мерах по повышению качества непрерывного образования и результативности науки по направлениям химия и биология» от 12 августа 2020 года («Получение оксида магния (магнезита) путём комплексной переработки доломита месторождения Вауш»), пункте 91 Приложения №6 к Постановлению Президента Республики Узбекистан № ПП-307 «Об организационных мерах по реализации Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы» от 6 июля 2022 года («Разработка метода получения магнезита в лабораторных условиях путём комплексной переработки доломита»), пункте 9 Приложения №6а к этому же ПП-307 («Производство вторичной готовой продукции путем комплексного изучения имеющихся нерудных полезных ископаемых: доломита, кварцевого песка и бентонитовых глин месторождения Вауш»), а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики VII. «Науки о земле (геология, геофизика, сейсмология и переработка минерального сырья)».

**Степень изученности проблемы.** В мире большой вклад в научные исследования по обогащению и переработке полезных ископаемых, получению магниевых продуктов на их основе внесли: Носов А.В., Wanzhong Yin, Gonglun Chen, Iwasaki I., Кропанев С.И., Некрасова Г.Н., Дормешкин О.Б., Кетов А.А., Кузьменков Д.М., Дмитревский Б.А. и другие ученые.

